

“TASDIQLAYMAN”
“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”
aksiyadorlik jamiyati
boshqaruvi raisi



D. Isaqulov

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatida
2025-yil II chorak uchun korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT

I. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi
bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Mazkur qarorga asosan, yangi tashkil etilgan Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish, elektr energiyani respublikaning magistral elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish va davlatlararo tranzitni amalga oshirish, qo‘shni davlatlarning elektr energetika tizimi bilan hamkorlik qilish asosiy faoliyat turlari hisoblanadi.

Bugungi kunda Jamiyat tarkibida **14 ta** hududiy magistral elektr tarmoqlari, markaziy rele himoyasi va avtomatika xizmati, loyihalashtiruvchi, qurilish va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi funksional filiallar mavjud.

Jamiyatga qarashli **1580 ta** podstantsiya va **36 877 kmdan** ortiq **35-110-220-500 kVli** magistral havo elektr uzatish tarmoqlari mavjud.

Jamiyat markaziy apparati va tarkibidagi tuzilma hamda filiallarda jami **7992 nafardan** ziyod mutaxassis-xodimlar mehnat faoliyati olib bormoqda.

Jamiyatning uzbekistonmet.uz rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida sahifalarimizda **“Korrupsiyaga qarshi kurashish – O‘zbekiston MET” AJ** nomli rukn va sahifalar ochilgan. Unda Jamiyat tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar, xususan, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatining ma‘lumot va hisobotlari berib boriladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va **“yashirin iqtisodiyot”**ni qisqartirish choralari ko‘rilmoqda, **“Korrupsiyasiz soha”** loyihalarining joriy etilishi yuzasidan muhim vazifalar ijrosi ta‘minlanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining samaradorligini ta'minlash maqsadida xorij amaliyoti uyg'unligida korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish – davr talabi.

2025-yil 17-20 iyun kunlari **“Cert Academy Group”** xalqaro kompaniyasi mutaxassisleri tomonidan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” ISO 37001:2025** xalqaro standart bo'yicha o'quv kursi tashkil etildi, ushbu o'quv kursida Jamiyat markaziy apparati va hududiy filiallardan **37 nafar** xodimlar qatnashib, korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashdi, o'quv kursi yakuni bilan barcha xodimlar tegishli xalqaro sertifikatlarni olishga muvaffaq bo'ldi.

Ushbu o'quv kursida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni shakllantirish, korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy qilishning asosiy omillari, korrupsiyaviy tavakkallarni (riskni) baholash, manfaatlar to'qnashuvi hamda sovg'a olish-berish siyosatini tartibga solish, ichki audit tizimining ishini samarali tashkil etish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ichki me'yoriy tartib-qoidalarni ishlab chiqish bo'yicha tegishli bilimlar o'zlashtirildi.

Ta'kidlash joizki, **ISO 37001:2025 – bu Jamiyatda** korrupsiyaga qarshi samarali tizimni yaratish uchun **xalqaro modelni o'z ichiga olgan dunyodagi xalqaro standart** hisoblanadi. Alohida e'tirof etish joizki, **ISO 37001:2025 sertifikatini** olish orqali Jamiyat investorlar, tadbirkorlar, davlat hokimiyati organlari va boshqa manfaatdor tomonlarga jarayonlarni shaffof, qonuniy va jahonning ilg'or tajribalariga mos ravishda o'tkazishni yuqori darajada namoyish etishini ta'minlaydi.

Jamiyatning **1000 dan** ortiq xodimlaridan korrupsiya holatlarini aniqlash va monitoring qilish bo'yicha anonim so'rovlar o'tkazildi. To'plangan ma'lumotlar umumlashtirilib, Jamiyat korrupsion risklarni oldini olishda, korrupsion risklar ro'yxati bo'yicha **“Yo'l xaritasi”** va Jamiyatda raqobat to'g'risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha **2024-2025-yillarga** mo'ljallangan **“Yo'l xaritasi”** loyihasi ishlab chiqilib, boshqaruv raisining buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi bo'yicha **103 ta** davlat tashkilotining (jumladan, 14 tasi ilk marotaba, 89 tasi esa takroran) 2024-yildagi faoliyati 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholashdan o'tkazildi.

Unga ko'ra, **“O'zbekiston MET” AJ faoliyati** samaradorligiga **71 (qoniqarli) ball** berildi. 2023-yilga nisbatan bu yil reyting natijalari **11 ballga yaxshilandi**.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Jamiyatni o'rganish quyidagi Qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlari va ichki hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”** 2017-yil 3-yanvardagi **419-O'RBQ** Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" 2021-yil 22-apreldagi **O'RQ-684** Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" 2024-yil 5-iyundagi **O'RQ-931** Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 27-maydagi **PF-5729-son** Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 29-iyundagi **PF-6013-son** Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 2-iyuldagi **PF-5171-son** Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yana-da takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 21-apreldagi **PF-71-son** Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 6-iyuldagi **PF-6257-son** Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 6-iyuldagi **PQ-5177-son** Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 5-iyundagi **PQ-210-son** Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 21-apreldagi **PQ-147-son** Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 21-avgustdagi **PQ-4812-son** qarori 4-bandiga muvofiq, xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) cooperation.uz portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyati birinchi navbatda o'rganiladi va tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 29-yanvardagi **41-son qarori** 2-bandini "Davlat xaridlaridagi ishtiroki vaqtincha taqiqlangan va chegaralangan xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, xorijiy shaxslar tomonidan bajariladigan ishlar (xizmatlarning) ro'yxatiga, davlat xaridlari jarayonida amal qilish monitoringga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 2-iyuldagi **PQ-5171-son** qarori asosida xarid qilinishi rejalashtirilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda, xaridga doir texnik topshiriqlar va tender hujjatlari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan kompleks ekspertizadan o'tkazilishi buyruq bilan belgilanib, nazoratga olingan.

Jamiyatda korrupsion risklarni oldini olishda korrupsion risklar ro'yxati va ularni minimallashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" va korrupsiya xavfi bo'lishi mumkin bo'lgan administrativ protseduralar (harakatlar) bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqildi va Jamiyat boshqaruv raisining buyrug'i bilan tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 2017-yil 3-yanvardagi 419-O'RQ Qonunning 4-bobiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni, ISO37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti ijrosini ta'minlash maqsadida Jamiyat boshqaruv raisining 2022-yil 28-iyundagi 151-son buyrug'i bilan quyidagi halqaro talablarga javob beradigan ichki hujjatlar tasdiqlandi:

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizomi;

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizomi;

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining odob-axloq Qoidalari;

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma;

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma;

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti;

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti;

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti.

III. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Jamiyat tomonidan **Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Nizomga va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga muvofiqlik deklaratsiyasi 2025-yil 30-iyun holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan 190 nafar xodimlar tomonidan to‘ldirildi.**

Davlat xaridlarini amalga oshirishning qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan nazorat qilish va zaruriyat bo‘lganda ekspertiza o‘tkazish bo‘yicha:

Tanlov va tender savdolarida komissiya ishida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish bo‘yicha Jamiyatning tanlov va tender savdolarida komissiya ishida Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig‘i kuzatuvchi doimiy ravishda ishtirok etib borilmoqda xarid komissiyasi a‘zosi sifatida tasdiqlangan.

Shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684 Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” PQ-3953 amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2018-yil 27-sentabrdagi qaror bo‘yicha xaridlarni amalga oshirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha biznes hamkorlar va xodimlar bilan shartnomalar tuzish tartibi

Jamiyatda biznes hamkorlar bilan shartnomaviy harakatlarni amalga oshirishda ularni faoliyatini o‘rganish va shartnomada maxsus korrupsiyaga qarshi band joriy qilindi.

Shuningdek, Jamiyatning barcha xodimlarining mehnat shartnomalariga qo‘shimcha qilib korrupsiyaga qarshi bandi kiritildi.

IV. Ta’lim va kommunikatsiya

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish va sifatni boshqarish masalalari nafaqat respublika korxonalari va tashkilotlari, balki umuman davlatning iqtisodiy manfaatlari diqqat markazida. Respublika rahbariyati tomonidan iqtisodiyotning barcha sohalaridagi tashkilotlarda xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimini joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

ISO37001:2016 standarti Jamiyatning amalga oshirilayotgan ishlar va xizmatlar sifatini rivojlantirish, respublika elektrenergoni ishlab chiqarish faoliyatini jahonda tan olingan mexanizmlar asosida tashkil etish, mavjud moliyaviy, texnik va kadrlar resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash va

boshqaruv tizimini optimallashtirish sohasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev raisligida 2025-yil 5-mart kuni bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishida belgilab berilgan ustivor vazifalardan kelib chiqib, **2025 yil 17 mart kuni** Bosh prokuratura bilan “Yo‘l xarita” ishlab chiqilib tasdiqlandi.

2025-yil 24-aprel kuni Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplaens) xizmati tomonidan iqtisodiy onlayn o‘qish tashkil etildi. Mazkur tadbirda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining bosh inspektori O. Abdug‘aniev korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tadbir ishtirokchilariga ma‘lumot va ish tajribalari bilan o‘rtoqlashdi. Tadbirda Jamiyat va uning hududiy filiallaridan **150 nafar** rahbar va xodimlar ishtirok etib, o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldi.

2025 yil 22 aprel kuni Energetika vazirligida Zoom platformasida (onlayn muloqot) “Yurtimizda korrupsiyadan holi muhit yaratishni davom ettirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustivor vazifalar” mavzusi bo‘yicha iqtisodiy o‘qishda qatnashildi.

2025 yilning 24 aprel kuni soat 10:00 da “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida 2025 yilning 5 mart kuni bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishida belgilab berilgan ustivor vazifalardan kelib chiqib iqtisodiy o‘qish tashkil etildi.

Ushbu tadbirni Aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari S. Artikov kirish so‘zi bilab ochib berib, Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan Milliy kengash yig‘ilishidagi berilgan barcha ustivor vazifalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib o‘tdi. Ushbu iqtisodiy o‘qishda korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining bosh inspektori – O.A.Abdug‘aniev Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tadbir ishtirokchilariga ma‘lumot va ish tajribalari bilan o‘rtoqlashib, korrupsiyaga nisbatan barchamiz kurashsak, bu illatni bemalol ildizini quritish mumkinligiga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Ushbu tadbirda Aksiyadorlik jamiyati va uning filiallaridan rahbar, xodimlar ishtirok etib, o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollariga javob oldi. Tadbirda 150 nafar ishtirokchi qatnashdi.

2025 yil 6 may kuni davlat organlari va tashkilotlari markaziy apparati, hududiy va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mas‘ul xodimlari uchun “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini reyting baholash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va kamaytirish” mavzusida onlayn o‘quv seminari o‘tkazildi. Ushbu o‘quv seminarda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning Muvofiqlik tizimi komplayens xizmati xodimlari ham ishtirok etdi.

2025 yil 8 may kuni Energetika vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag‘ishlangan seminar tashkil etildi.

Videokonferens-aloqa shaklida o'tkazilgan mazkur seminarda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi Oybek Abdug'aniyev tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni mazmun-mohiyati hamda ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, yoqilg'i-energetika tarmog'i korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish, ularning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish bo'yicha dolzarb masalalar yuzasidan tegishli tushuncha hamda ma'lumotlar berildi.

Seminarda "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJning Muvofiqlik tizimi komplayens xizmati boshlig'i Alisher Raxmonov va bosh mutaxassisi Zokir Hakimov ishtirok etishdi. Seminar davomida ishtirokchilarning savollariga mas'ullar tomonidan batafsil ma'lumotlar berildi.

2025 yilning 12 may kuni "O'zbekistonda davlat boshqaruvini takomillashtirish – inklyuziv ravishda korrupsiyaning oldini olish" loyihasining 2025 yil chora-tadbirlar rejasiga muvofiq Zoom platformasi orqali o'tkazilgan o'quv seminarida "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ Muvofiqlik tizimi komplayens xizmati boshlig'i A. Raxmonov va bosh mutaxassis Z. Hakimov ishtirok etdi.

2025 yilning 14 may kuni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan "Davlat xizmatchilarining xulq-atvorida korrupsiyaviy risklarni baholash" mavzusida Germaniya tajribasi yuzasidan xalqaro ekspert Ingo Sorgatz ishtirokida Zoom platformasi orqali navbatdagi o'quv seminari tashkil etildi.

O'quv seminari davlat organlari va tashkilotlari hamda xo'jalik jamiyatlarining o'rta va yuqori darajadagi davlat xizmatchilari uchun "Davlat xizmatchilarining xulq-atvorida korrupsiyaviy risklarni baholash" mavzusida bo'lib, ushbu seminarda "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ Muvofiqlik tizimi komplayens xizmati boshlig'i Alisher Raxmonov va bosh mutaxassis Zokir Hakimov ishtirok etdi.

2025 yil chora-tadbirlar rejasiga muvofiq 21-22 may kunlari davlat xizmatchilari uchun "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish" mavzusida (IHTTning O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi islohotlarning 5-raund monitoringi tavsiyalari inobatga olingan holda) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi binosida o'quv seminari bo'lib o'tdi. Mazkur o'quv seminarida "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ Muvofiqlik tizimi komplayens xizmati boshlig'i Alisher Raxmonov va bosh mutaxassis Zokir Hakimov ishtirok etishdi.

2025-yil 17-20 iyun kunlari "CERT Academy Group" xalqaro kompaniyasi mutaxassislari tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" **ISO 37001:2025 xalqaro standart bo'yicha** o'quv kursi tashkil etildi, ushbu o'quv kursida Jamiyat markaziy apparati va hududiy filiallaridan **37 nafar** xodimlar qatnashib, korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashdi, o'quv kursi yakuni bilan barcha **xodimlar tegishli xalqaro sertifikatlarni olishga** muvaffaq bo'ldi.

Ushbu o'quv kursida tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni shakllantirish, korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy qilishning asosiy

omillari, korrupsiyaviy tavakkallarni (riskni) baholash, manfaatlar to'qnashuvi hamda sovg'a olish-berish siyosatini tartibga solish, ichki audit tizimining ishini samarali tashkil etish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ichki me'yoriy tartib-qoidalarni ishlab chiqish bo'yicha tegishli bilimlar o'zlashtirildi.

To'plangan ma'lumotlar umumlashtirilib, Jamiyat korrupsion risklarni oldini olishda korrupsion risklar ro'yxati bo'yicha **"Yo'l xaritasi"** va Jamiyat tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha 2024-2025-yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi loyihalari ishlab chiqilib, Boshqaruv raisining buyrug'i bilan tasdiqlandi.

V. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo'yicha murojaatlarini qabul qilishda va komplayens tizimida xodimlar tomonidan qoidabuzarliklarni xabar qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Maxsus **"ishonch telefoni"** 71-208-56-41 ajratildi;

Maxsus telegram kanali **t.me/uzmetaxborotxizmati** ochildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida Jamiyat faoliyatining barcha yo'nalishlaridagi korrupsiyaviy shart-sharoitlarni minimallashtirish hisobiga korrupsiya huquqbuzarligi minimal darajaga tushirildi. Jamiyat ishchi-xodimlari o'rtasidagi korrupsiya va uning oqibatlari to'g'risida seminarlar o'tkazildi.

Jamiyatning uzbekistonmet.uz veb-saytida **"Murojaatlar"** rukni orqali jamoatchilik vakillari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot yo'lga qo'yildi. Elektron sahifaga viloyat magistral elektr tarmoqlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar, jumladan, ularning rahbarlari, joylashgan manzili va telefon raqamlari joylashtirildi.

Jamiyatning rasmiy veb-sahifasida **"Korrupsiyaga qarshi kurashish"** rukni yaratildi. Kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilib borish va murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish jurnali joriy etilib, yuritilib borilmoqda.

VI. Monitoring va nazorat

Loyihalarni moliyalashtirish manbaalari, yetkazib beruvchilar to'g'ri tanlanganligi va xarid jarayonini tahlil qilish bo'yicha

Jamiyat tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha **2024-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"** Jamiyat boshqaruvi qarori bilan tasdiqlandi.

Jamiyat Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig'i 2025-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlar rejasi 2025-yilda Jamiyat boshqaruv raisining buyrug'i bilan tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni, ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari – foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti hamda Jamiyatda

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha 2024-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev raisligida 2025 yil 5 mart kuni bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilab berilgan ustivor vazifalardan kelib chiqib, 2025-yil 24-aprel kuni Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplaens) xizmati tomonidan iqtisodiy o'qish tashkil etilgan. Mazkur tadbirda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining bosh inspektori O. Abdug'aniev korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tadbir ishtirokchilariga ma'lumot va ish tajribalari bilan o'rtoqlashgan. Tadbirda Jamiyat va uning hududiy filiallaridan 150 nafar rahbar va xodimlar ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olgan.

VII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Jamiyat xodimlari tomonidan sodir etilgan qonun buzilish, korrupsiya va boshqa nojo'ya xatti-harakatlar to'g'risida ma'lumot (ariza, shikoyat, xabar)lar bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha Jamiyatning 2025-yil 5-fevraldagi 22-son hamda 11-martdagi 49-son buyruqlariga asosan xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, tegishli choralar ko'rildi.

VIII. Xulosalar

Jamiyat tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro talablarga javob beradigan **10 dan ortiq** ichki-me'yoriy hujjatlar, doimiy ravishda korrupsiya va unga qarshi kurashish usullari, Jamiyatda komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha mas'ul rahbarlar va tarkibiy tuzilma xodimlari ishtirokida an'anaviy vebinar kurslari o'tkazib kelinmoqda.

IX. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Jamiyatning rasmiy veb saytida uchta (o'zbek, ingliz, rus) tillarida korrupsiyaga qarshi kurashish sahifasi ochilgan va bu yo'nalishdagi ichki me'yoriy hujjatlar joylashtirilgan hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmoqda. Jumladan, hisobot davrida tizim korxonalari tomonidan ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali sohaga oid materiallar joylashtirilgan.

Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish rukni orqali rasmiy uzbekistonmet.uz veb-sahifasida e'lon qilingan mavzuga oid xabar va maqolalar anonsini taqdim etamiz:

<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/5965>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/5971>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/5973>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6009>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6014>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6028>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6195>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6330>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6345>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6346>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6366>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6397>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6408>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6410>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6465>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6489>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6494>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6505>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6569>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6598>
<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/6681>

Korrupsiya holatlarini bartaraf etish va unga qarshi kurash choralari samaradorligini oshirish, amaldagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha quyidagi hujjatlarga takliflar berildi:

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga "Davlat xizmatchilariga har qanday qiymatdagi sovg'alar berishni taqiqlash" to'g'risida qo'shimcha va o'zgartirish kiritish orqali fuqarolarning majburiyatlarini belgilash to'g'risida;

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga davlat xizmatchilarining oila a'zolari tomonidan moddiy yoki nomoddiy haq, sovg'a yoki xizmatlarni qabul qilishni taqiqlash to'g'risida;

Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat xizmati to'g'risida Nizom loyihasiga korxona komplayens xodimlari tomonidan huquq-tartibot organlari (IIV, prokuratura va boshqalar)dan so'rovnoma orqali ma'lumotlarni olish tartibini belgilash to'g'risida;

Respublika korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestriga "Nogironlikka chiqishdagi xulosalar berish", "Aholini gazlashtirishdagi davlat mablag'larini o'zlashtirish"ni qo'shish bo'yicha takliflar berildi.

Yuqorida ta'kidlanganlarni va mavjud korupsion xavf-xatarlarni inobatga olgan holda Komplayens xizmat boshlig'i quyidagi tadbirlarni taklif etadi.

Fuqarolarni ishga olish va mehnat munosabatlarida manfaatlar to'qnashuvi sohasida:

Tizim korxonalariga ishga olish jarayonini shaffof va ochiq bo'lishini ta'minlash maqsadida bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ommaviy axborot vositalarida hamda korxonada hammaga ko'rish imkoni bo'lgan joyda e'lon berib borish;

Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma" asosida o'rganishni tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori talablari asosida nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va har oy yakunida ishga qabul qilish jaryoni to'g'risida ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish;

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig'i tomonidan korxonalarda har 6 oyda ishga olish, lavozimdan lavozimga olishda jamoatchilik fikrini va shaffofligini o'rganish maqsadida anonim so'rovnoma o'tkazish;

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish va tartibga solish maqsadida ichki me'yoriy hujjat ishlab chiqish va joriy qilishni tashkillashtirish.

Xaridlarni tashkil etish sohasida quyidagi tadbirlar taklif etiladi:

Jamiyat boshqaruv raisining 2022-yil 28-iyundagi 151-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Jamiyatda kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma hamda Jamiyatda kontragentlarni tekshirish bo'yicha qo'llanma talablariga qat'iy rioya etish;

Komplayens xodimlari tomonidan har bir tuzilayotgan shartnomada tizimidagi korxonalar xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini jamiyatning mafaatlari to'qnashuvlarini boshqarish siyosati talablari asosida o'rganish;

Xaridlarni ochiq va shaffofligini ta'minlash maqsadida Jamiyat matbuot xizmati tomonidan har chorakda amalga oshirilgan xaridalar to'g'risida doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish.

Jamiyatning mas'ul xodimlari tomonidan o'z xizmat vakolati vazifalariga sovuqqonlik bilan yondashishi va ta'magirlik qilish holatlarini oldini olish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Boshqaruv tizimida nazoratni kuchaytirish maqsadida ichki normativ hujjatlar ishlab chiqish va sohada IT texnologiyalarini qo'llash orqali korrupsiogen omillarni kamaytirish;

Mazkur sohada qayd etilgan korrupsion xavf-xatarlarni kelib chiqishi, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Boshqaruv tizimida faoliyat olib keluvchi barcha xodimlarni Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalari talablari bilan tanishtirish, mazmun mohiyatini tushuntirish. Shuningdek, ularning mehnat shartnomalari korrupsiyaga qarshi kurashish talablari asosida qayta rasmiylashtirish;

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan mazkur yo'nalishda tushuntirish proflaktik hamda oldini olishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirish.

Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Muvofiqlik

tizimi (komplayens) xizmati boshlig'i quyidagi strategik vazifalarni belgilab oldi:

Jamiyatda aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarni inobatga olgan holda, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida takliflar tayyorlash;

fuqarolarni ishga qabul qilish va xodimlarni lavozimga tayinlashda korrupsiya xavf-xatarlarini minimallashtirish bo'yicha takliflar berish;

sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarni tatbiq etish hamda Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati boshlig'i uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;

korrupsion xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozim va yo'nalishlarni har chorakda tahlil qilish, natijasi bo'yicha axborot taqdim etish;

Jamiyatda komplayens sohasida qabul qilingan amaldagi me'yoriy hujjatlarning ijrosini monitoring qilish, Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Jamiyat xodimlari tomonidan ichki tartib qoidalarga, shu jumladan odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini o'rganish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha tizimli tahlil o'tkazish;

Jamiyatga yuborilgan korrupsiyaga taalluqli murojaatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borilishini tashkil etish;

Jamiyat tizimida bo'lishi mumkin bo'lgan korrupsiya holatlari, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovlar o'tkazish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash va aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.

**Muvofiqlik tizimi (komplayens)
xizmati boshlig'i**

A. Raxmonov